

SOLIQ TIZIMIDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHNING O’RNI

Subanova Zulayxo Abdunosir qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika insitituti

Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta’lim yo’nalishi talabasi

subanovazulayho7@gmail.com

UDK 336.22:334.722

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20570676>

Annotatsiya: Mazkur tezisda yakka tartibdagi tadbirkorlikni soliqqa tortish tartibi va bugungi kunda ushbu tartibga kiritilgan muhim jihatlar yoritilgan. O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati muhim o‘rin egallab, uning rivojlanishi iqtisodiy tizimning barqarorligiga xizmat qilmoqda. Ushbu tezisning maqsadi O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijasida ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Yakka tartibdagi tadbirkorlik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkor, shaxsiy tadbirkorlik, birgalikdagi tadbirkorlik, yakka tartibdagi faoliyat, tadbirkorlik, tadbirkorlik sub’yekti, umumbelgilangan soliqqa tortish, soddalashtirilgan soliq, fiskal barqarorlik.

Kirish: Yakka tartibdagi tadbirkorlik- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning eng oddiy shakli bo‘lib, uni tashkil qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 14-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to‘g‘risidagi nizom” bilan belgilanadi. Ushbu nizomga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini yuridik shaxs tashkil qilmay amalga oshirishi mumkin. Yakka tartibdagi tadbirkorni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish “Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.¹

Dastlab yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqisiz, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan yoki foydalanish huquqi asosidagi mol-mulk mustaqil ravishda amalga oshirilgan. Keyinchalik , 2015-yilning 1-iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga, faoliyatidan kelib chiqqan holda, yakka tartibdagi ish beruvchi tadbirkor uchun o‘rnatilgan stavkaning 30 foizi miqdorida qat’iy belgilangan soliq to‘lash sharti bilan bir nafardan uch nafargacha ishchini yollash huquqi berildi.² Hozirgi kunga kelib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra ushbu faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ma‘lum shartlar asosida 5 nafargacha bo‘lgan hodimlarni yollashi mumkin. Yakka tartibdagi tadbirkorlar belgilangan tartibda bank hisobvarag‘i ochgandan so‘ng hodimlarni yollash huquqiga ega bo‘ladi. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollangan xodimlar elektron tartibda shaxsiy kabinet yoki mobil ilova orqali davlat soliq organlarida ro‘yxatga qo‘yiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mehnat daftarchasi yuritilmaydi, u bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxslarga yakka tartibdagi tadbirkor sifatida qaralmaydi va yakka tartibdagi tadbirkor nomidan huquqiy hujjatlarni imzolash huquqiga ega emas.³

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 55-son qarori, 14.02.1995

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4725-son Farmoni, 15.05.2015

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 707-son qarori , 22.11.2021

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 6-son qaroriga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkorlar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan 89 ta faoliyat turlari aks ettirilgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib Vazirlar Mahkamasining 707-sonli qaroriga binoan ushbu qarorga o‘zgartirish kiritilib, yakka tartibdagi tadbirkorlar shug‘ulanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari 92 tani tashkil qildi.

Shuningdek, 2020-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4742-son qaroriga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo‘yish ularni davlat tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilayotganda (qayta ro‘yxatga olinayotganda) tadbirkorlik faoliyatini olib borish joyi bo‘yicha amalga oshirilishi, yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma unda yakka tartibdagi tadbirkorning fotosurati aks ettirilgan holda berilishi, yakka tartibdagi tadbirkorlarning yollanma ishchilariga yollanib ishlash asosida mehnat faoliyatini olib boruvchi shaxslar uchun o‘rnatilgan soliqqa tortish tartibini tadbiriq qilish haqida ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida” gi qonunga muvofiq, Yakka tartibdagi tadbirkorlik o‘z navbatida 2 turga bo‘linadi:

- ✓ Shaxsiy tadbirkorlik;
- ✓ Birgalikdagi tadbirkorlik.

Shaxsiy tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkorning o‘zi tomonidan mulk huquqida, shuningdek mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq tufayli o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Shaxsiy tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalangan hollarda, agar qonunlarda yoki nikoh shartnomasida yoxud er-xotin o‘rtasidagi o‘zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, erning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Yuridik shaxs tashkil qilmagan holdagi birgalikdagi tadbirkorlik shakllariga quyidagilar kiradi:

- ✓ er-xotinning umumiy mol-mulki negizida amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik, shu jumladan dehqon xo‘jaligining umumiy birgalikdagi mulki negizida amalga oshiriladigan dehqon xo‘jaligi;
- ✓ oddiy shirkat.

Er-xotinga umumiy birgalikdagi mulk huquqida tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganida, ish muomalasida er-xotin nomidan erning yoki xotinning roziligi bilan er-xotindan biri ishtirok etadi, bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkorlikni ro‘yxatdan o‘tkazish paytida tasdiqlanishi lozim. Tadbirkorlik faoliyati obyektida uy-joydan foydalanish bilan bog‘liq oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganida, uy-joy mulkdorlaridan birining ish muomalasiga kirishishi boshqa mulkdorlarning notarial tasdiqlangan roziligi bilangina bajariladi.⁴

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatiga doir yana bir muhim o‘zgarish shuki, 2024-yildagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 758-son qaroriga muvofiq xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan faoliyat faqat bitta manzil bo‘yicha shoxobchada amalga oshiriladi.⁵

O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlik (YaTT)ni soliqqa tortish amaliyoti mustaqillikdan buyon qator islohotlar orqali shakllanib kelmoqda. Ilk bosqichlarda YaTTlar umumiy soliq rejimlari asosida faoliyat yuritgan bo‘lib, bu ular uchun ortiqcha ma‘muriy to‘siqlar

⁴ O‘zbekiston Respublikasining 754-I-son Qonuni, 14.04.1999

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 758-son qarori 14.11.2024

va yuqori soliq yukini keltirib chiqargan.⁶ Keyinchalik soliq tizimini soddalashtirish, patent va yagona to'lov tizimini joriy qilish ularning rasmiy iqtisodiyotga integratsiyasini rag'batlantirgani mahalliy tadqiqotlarda qayd etilgan.⁷

O'zbekiston qonunchiligida 2000-yillardan boshlab kichik biznes va YaTTlar uchun soddalashtirilgan soliq rejimlari keng qo'llana boshladi. Masalan, “Soliq kodeksi”ning yangi tahrirlari YaTTlarning huquqiy maqomini, patent asosida soliq to'lash mexanizmlarini va hisobot yuritish tartibini aniq belgilab berdi.⁸ Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham YaTTlar faoliyatini soliqqa tortish amaldagi mexanizmlari tanqidiy tahlil qilingan. Jumaniyozov tadqiqotida patent va soddalashtirilgan to'lov tizimi kichik tadbirkorlikni qonuniylashtirishda ijobiy samara bergani, ammo daromad darajalariga mutanosiblik prinsipi to'liq ta'minlanmaganini qayd etgan.⁹ Shu bilan birga, Axmedov raqamlashtirilgan soliq ma'murchiligini joriy qilish, onlayn deklaratsiya tizimlari va soliq organlari bilan munosabatlarni soddalashtirish amaldagi mexanizmdagi samaradorlikni oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi.¹⁰ YaTTlar uchun amaldagi soliq mexanizmining ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlari ham tadqiqotlarda yoritilgan. Masalan, Xoliqovning fikriga ko'ra, soddalashtirilgan soliq tizimi aholi bandligini oshirish va norasmiy sektorni qisqartirishga hissa qo'shgan, ammo ayrim hollarda ma'muriy nazoratning zaifligi va raqamli yechimlarning yetarlicha qamrab olmagan tizim samaradorligini cheklab qo'yimoqda.¹¹ Shu tariqa, mahalliy adabiyotlarda YaTTlarni soliqqa tortishning amaldagi mexanizmdagi afzalliklar (soddalik, patent tizimi, ma'muriy yukning kamayishi) bilan birga, kamchiliklar (adolat prinsipining to'liq ta'minlanmagani, raqamli infratuzilmaning to'liq ishga tushmagani, nazoratning yetarli emasligi) ham keng yoritilmoqda. Bu esa kelgusida soliq mexanizmlarini takomillashtirishda fundamental va institutsional islohotlarning dolzarbligini ko'rsatadi.

YaTT faoliyatini soliqqa tortish mexanizmini umumbelgilangan soliqqa tortish tartibi bilan uyg'unlashtirish maqsadida 2018-yilda qabul qilingan soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi¹² hamda 2020-yil kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan ularni soliqqa tortish tartiblarini belgilashda jami yillik daromadi chegarasi bo'yicha bir qator yangi qoidalar kiritildi. Bu YaTTlarni soliqqa tortish mexanizmini yuridik shaxslarni soliqqa tortishni nazarda tutuvchi soliqqa tortish tartiblari bilan muvofiqlashtirish imkonini berdi. Yangi tartibga ko'ra YaTTlarning faoliyatini soliqqa tortishda ularning jami yillik daromad miqdori asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Bu yondashuv soliq siyosatini darajalab borish va kichik biznesga nisbatan maqsadli fiskal siyosat yuritishga xizmat qiladi.

YaTTlarni soliqqa tortishning amaldagi mexanizmi orqali belgilangan tartiblari umumlashtirilgan bo'lib, unga asosn agar YaTTning jami yillik daromadi 100 mln. so'mgacha bo'lsa, u holda subyekt faqat daromad solig'i (DS) to'lashi mumkin. Bunda soliq to'lovchi daromad solig'ini hisoblash va to'lashning ikki asosiy tartibidanbirini tanlash huquqiga ega bo'lib, bular jami yillik

⁶ Qodirov, D. (2018). Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning institutsional muammolari. Toshkent moliya instituti ilmiy axborotnomasi, 4(3), 74–82.

⁷ Tursunov, S. (2020). Soddalashtirilgan soliq tizimining samaradorligi va uni takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisodiy tahlil jurnali, 27(5), 33–41.

⁸ Xoliqov, M. (2022). Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish tizimi va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaralari. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2(7), 88–97.

⁹ Jumaniyozov, A. (2019). Soliq tizimini soddalashtirishning kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatiga ta'siri. O'zbekiston moliya jurnali, 6(1), 55–63.

¹⁰ Ahmedov, B. (2021). Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliq ma'murchiligini raqamlashtirish orqali boshqarishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 5(2), 112–120.

¹¹ Xoliqov, M. (2022). Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish tizimi va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaralari. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2(7), 88–97.

¹² <https://lex.uz/docs/3802378>

daromadlaridan deklaratsiya asosida 12 foiz stavkada va qat’iy belgilangan soliq (QBS). Deklaratsiya asosida soliq to’lash tartibini tanlagan YaTTLar hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay taqdim etishi va keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay soliq to’lovini amalga oshirishi belgilangan. Qat’iy belgilangan soliq (QBS) to’lash tartibini tanlagan sub’ektlar, faoliyat turi va joyidan kelib chiqib qat’iy belgilangan summada har oyda soliq to’lovini amalga oshirishi belgilangan.

Xususan, 2020–2024-yillar davomida qat’iy belgilangan soliq (QBS) stavkalaridagi o’zgarishlar soliq siyosatining tadbirkorlikni tartibga solishdagi dinamikasini va inflyasion omillarga moslashuvini ifodalaydi. Ushbu yillar ichida QBS stavkalarida bir necha bosqichli o’sish qayd etilgan bo’lib, bunda asosiy yondashuv inflyasiya darajasini hisobga olgan holda soliq yukini barqaror saqlashga qaratilgan. 2020-yildan 2022-yilgacha QBS stavkalari barqaror holda saqlanib, asosiy faoliyat turlari bo’yicha oylik soliq miqdori o’zgarmagan. Bu davrda davlat tomonidan kichik biznesni qo’llab-quvvatlash maqsadida inflyasiyani hisobga olgan holda soliq stavkalari moslashtirilmaganligini ko’rish mumkin.

Biroq, 2023-yildan boshlab, soliq stavkasiga 1.1 koeffitsient asosida indeksatsiya qilish tartibi joriy etildi. Bu qoidaga asosan, har bir faoliyat turi uchun belgilangan QBS miqdori 10 foizga oshirildi. Masalan, chakana savdoda oziq-nooziq ovqat tovarlari uchun Toshkent shahrida QBS oylik stavkasi 750 ming so’mdan 825 ming so’mgacha ko’tarildi. Shu tarzda, boshqa hududlar uchun ham mos ravishda indeksatsiya amalga oshirildi: Nukus va viloyat markazlari uchun 600 ming so’mdan 660 ming so’mgacha, boshqa shaharlarda 300 ming so’mdan 330 ming so’mgacha va aholi punktlarida 200 ming so’mdan 220 ming so’mgacha o’sish kuzatildi. Bu yondashuv orqali QBSning haqiqiy qiymatini inflyatsiyaga mos ravishda saqlashga harakat qilingan.¹³

2025-yildan QBS stavkasi tuzilmasida bir qator o’zgarishlar amalga oshirildi. Jadvaldan ko’rish mumkinki, eng yuqori stavkalar Toshkent shahri uchun belgilangan bo’lib, masalan, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo uchun oylik soliq 700 ming so’mdan 1 million so’mgacha bo’lishi mumkin. Nukus shahri va viloyat markazlarida ushbu faoliyat uchun 265 mingdan 800 ming so’mgacha, boshqa shaharlarda va aholi punktlarida esa nisbatan kamroq miqdorda belgilanadi. Qishloq xo’jaligi mahsulotlari bilan dehqon bozorlarida savdo qilish, gazetalar va kitoblar bilan savdo, maishiy xizmatlar hamda boshqa faoliyat turlari uchun esa oylik qat’iy soliq Toshkentda 230 mingdan 330 ming so’mgacha, boshqa hududlarda 65 mingdan 200 ming so’mgacha etib belgilangan. Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlarida ham mashinaning yuk ko’tarish quvvatiga qarab oylik soliq 200 ming yoki 300 ming so’m qilib belgilangan.¹⁴

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, YTT faoliyati nafaqat O’zbekiston, balkim, barcha davlatlarda iqtisodiyotning o’ziga xos bo’gini bo’lib, serqirradir. U ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish bilan birga an’anaviy qishloq xo’jaligi, innovatsion raqamli sohalarni ham qamrab olishi mumkin. Eng kam mablag’ bilan boshlash imkoniyati, soliq to’lash va hisobot tizimi yengilligi, daromad to’liq va tez faoliyat egasi tomonidan o’zlashtirilishi mazkur sohaga aholini oson jalb qiladi va bandlikni ta’minlashda muhim ro’l o’ynaydi.

O’zbekistonda YaTTLarni soliqqa tortish mexanizmi bosqichma-bosqich takomillashib kelayotgan bo’lsa-da, hali to’liq hal etilmagan muammolar mavjud. Tanqidiy tahlil shuni ko’rsatadiki, amaldagi mexanizmning asosiy afzalliklari — soddalik, patent asosida to’lov qilish

¹³ <https://lex.uz/docs/6333246>.

¹⁴ <https://lex.uz/docs/7279923>

imkoniyati va ma'muriy yuklarning kamayishi hisoblanadi. Biroq adolat va mutanosiblik prinsiplarining to'liq ta'minlanmagani, raqamli platformalarning yetarlicha joriy etilmagani hamda nazorat tizimining samarasizligi kabi muammolar tizim samaradorligini cheklab qo'ymoqda.

Taklif sifatida quyidagilar ishlab chiqildi:

- soliq mexanizmlarini daromad darajasiga mutanosib ravishda qayta ko'rib chiqish orqali ijtimoiy adolatni ta'minlash zarur.

- Shu bilan birga, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun raqamlashtirilgan deklaratsiya va hisobot tizimlarini to'liq joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

- Soliq ma'murchiligini soddalashtirish bilan bir qatorda nazorat mexanizmlarini ham shaffolashtirish lozim.

- Bundan tashqari, YaTlarni ijtimoiy himoya tizimiga kengroq integratsiya qilish ularning rasmiy iqtisodiyotga to'liq jalb etilishiga xizmat qiladi.

- Demak, amaldagi soliq mexanizmlari yanada takomillashtirilsa, mamlakatda tadbirkorlik muhitining barqaror rivojlanishi, aholi bandligining oshishi va davlat budjeti barqarorligining ta'minlanishiga keng imkoniyat yaratiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining 754-I-son Qonuni, 14.04.1999
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 55-son qarori, 14.02.1995
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 707-son qarori, 22.11.2021
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 758-son qarori 14.11.2024
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4725-son Farmoni, 15.05.2015
6. Qodirov, D. (2018). Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning institutsional muammolari. Toshkent moliya instituti ilmiy axborotnomasi, 4(3), 74–82.
7. Tursunov, S. (2020). Soddalashtirilgan soliqlar tizimining samaradorligi va uni takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisodiy tahlil jurnali, 27(5), 33–41.
8. Xoliqov, M. (2022). Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish tizimi va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaralari. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2(7), 88–97.
9. Jumaniyozov, A. (2019). Soliq tizimini soddalashtirishning kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatiga ta'siri. O'zbekiston moliya jurnali, 6(1), 55–63.
10. Ahmedov, B. (2021). Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliq ma'murchiligini raqamlashtirish orqali boshqarishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 5(2), 112–120
11. Xoliqov, M. (2022). Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish tizimi va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaralari. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2(7), 88–97.
12. <https://lex.uz/docs/3802378>
13. <https://lex.uz/docs/6333246>
14. <https://lex.uz/docs/7279923>